

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarni boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi darslarida turli metodlar orqali kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari yozilgan.

Kalit so'zlar: o'yin metodlar, kreativ fikrlash, mantiqiy tafakkur, hikoya, qahramon, qiziqish, faoliyat, so'z boyligi, motivatsiya, kommunikatsiya.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ МЕТОДОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Гайибназарова Наргиза Рахимжоновна

старший преподаватель кафедры методики дошкольного, начального и специального образования Наманганского областного центра педагогического

Аннотация: В статье описываются способы развития коммуникативных навыков учащихся с помощью различных методов на уроках грамотности в начальной школе.

Ключевые слова: игровые методы, творческое мышление, логическое мышление, история, герой, интерес, деятельность, словарный запас, мотивация, коммуникация.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS THROUGH METHODS IN THE PRIMARY EDUCATION PROCESS

Goyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna

*Senior teacher of the Department of Pre-School, Primary and Special Education
Methods of the Pedagogical Center of Namangan Region*

Abstract: The article describes ways to develop students' communicative skills through various methods in primary education literacy lessons.

Keywords: game methods, creative thinking, logical thinking, story, hero, interest, activity, vocabulary, motivation, communication

Boshlang'ich ta'lim darslarida didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda eng qulay metodlardan biridir. Ko'plab o'qituvchilar didaktik o'yinlardan darsning qaysi qismida ko'proq foydalanish yaxshi degan savolga javob berishganida, ularning ko'p nafari o'yinlarni asosan dam olish daqiqalarida yoki o'tgan mavzularni mustahkamlashda qo'llashlarini aytishgan. Biroq, bu metodning to'g'ri qo'llanilishi nafaqat mavzularni mustahkamlashda, balki yangi mavzularni bayon qilishda ham juda samarali hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar va faollashtiruvchi metodlar o'quvchilarning bilimlarini qiziqarli tarzda o'rganish imkoni oshiradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishda mashaqqatlarni yengillashtiradi. O'yin jarayonida o'quvchilar o'rganish faoliyatini ko'proq qiziqarli va interaktiv tarzda amalga oshiradilar. O'yinlar orqali o'quvchilar darsning davomida o'zlashtirilgan materialni yanada chuqurroq tushunishga erishadilar.

O'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi, ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Kreativ fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish: Didaktik o'yinlar o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin jarayonida o'quvchilar muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va mantiqiy bog'lanishlarni topish kabi ko'nikmalarni o'rganadilar.

Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'stirish: O'yinlar o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham yordam beradi. Guruhda ishlash, muloqot qilish va hamkorlikda qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalar o'quvchilar tomonidan o'yinlar orqali samarali tarzda o'zlashtiriladi.

Turli samarali o'yinlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini o'zgartiradi, ammo ular faqat to'g'ri va maqsadga muvofiq tarzda qo'llanilganda samarali bo'ladi. O'yinlar faqat dam olish yoki vaqt o'tkazish uchun emas, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va bilimlarini mustahkamlash uchun faol ta'lim vositasi bo'lishi kerak. To'g'ri tashkil etilgan didaktik o'yinlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va faol qiladi. O'yinlarni har bir darsning kerakli qismida, ya'ni yangi mavzuni bayon qilishda, mustahkamlashda va rivojlantirishda qo'llash o'quvchilarning umumiy shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tanlangan usul va metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni dars jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin elementlari orqali o'rganish jarayoni osonroq va samaraliroq bo'ladi. Ushbu metodlarning afzalliklari va ularni qo'llash yo'llarini beramiz.

"Meni tushun" metodi

"Meni tushun" metodi orqali o'quvchilar fikr almashish, so'z boyligini oshirish va bir-birini tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodning samarali qo'llanishi o'quvchilarga muloqot va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishda, o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashda hamda jamoada ishlashda katta yordam beradi. Bu metod

ayniqsa, dars mavzusini jamoaviy tarzda o'rganish zarur bo'lgan vaziyatlarda juda samarali hisoblanadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Meni tushun" metodini qo'llashda o'quvchilar ko'pincha guruh tarkibida bir-birlariga taqdim etish uchun badiiy asarlarning qahramonlarini tanlashadi. Masalan, guruh tarkibidan bir kishi o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan badiiy asar qahramonini suratini ko'rsatadi va uning nomini aytmasdan, o'quvchilarga ta'riflay boshlaydi yoki nutqidan bir parcha keltiradi.

MISOLLAR:

Birinchi o'quvchining ifodasi: "Chunki bu o'tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman." Ushbu parcha 2- sinf darsligidagi "Chumolining jasorati" hikoyasidan olinganini o'quvchilar darrov topadilar. Bu yerda o'quvchilar nafaqat hikoya muallifini, balki qahramonning mantiqiy, hissiy holatini ham tushunishadi, bu esa ularning empatiya ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ikkinchi o'quvchining ifodasi: "Sen o'zing yildagi eng yaxshi kun 30-sentyabr, chunki shu kuni ov mavsumi ochiladi, deganding. Ana shu kun sening tug'ilgan kuning bo'la qolsin." O'quvchilar bu parcha "Sharikning tug'ilgan kuni" hikoyasidan olinganligini darrov topadilar. Bu metod orqali o'quvchilar hikoyaning muhim tafsilotlarini eslab qolishadi, muallifning tili va uslubini sezaдилar. Shuningdek, hikoyadagi qahramonlarning hissiy holatini ifodalashga oid ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Uchinchi o'quvchining ifodasi: "Noo'rin savolim uchun kechirasizlar-u, mana, sizlar janub deyapsiz. Janub o'zi qanaqa joy?" O'quvchilar bu parcha "Sayohatchi qurbaqa" ertagidan olinganligini darrov topadilar. Bu yerda o'quvchilar mantiqiy fikrlash va tasavvur qilish orqali ertakning mohiyatini anglab yetadilar, shuningdek, janubning xarakterini tasvirlashga oid tafsilotlarni muhokama qilishadi.

O'quvchilar o'rtasida faol fikr almashish amalga oshiriladi. Bunday muloqot ularning fikrlarini erkin ifodalashga imkon beradi. so'z boyligini oshirish, s'quvchilarning so'z boyligini oshirishda samarali yordam beradi, chunki ular yangi so'zlarni o'rganadilar va ulardan amalda foydalanadilar. Jamoaviy ishlashga asoslangan, bu esa

O'quvchilarning guruhlarda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Jamoada ishlash, fikrlarni birlashtirish va umumiy qarorga kelish o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mavzu o'quvchilarga nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o'zaro hurmat, diqqat va tinglash kabi muhim sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular o'zaro munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar kiritishga o'rganadilar va o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalashni o'rganadilar.

"Eslab qolamiz" metodi

"Eslab qolamiz" metodi orqali o'quvchilarning xotira qobiliyatini oshirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Ushbu metodda o'yin elementlari kiritilganligi sababli

bolalar dars jarayoniga qiziqish bilan qaraydi. Masalan, dars davomida yangi soʻzlarni yodlash yoki oʻqituvchi aytgan matnni qayta tiklash mashqlari orqali oʻquvchilar oʻrganilgan bilimlarni tezroq eslab qoladi va ularni kundalik hayotda qoʻllashga oʻrganadi.

Uchib kelar har yoqdan qadrdon qushlar, Koʻchib kelar yiroqdan mehribon qushlar. Sogʻinganmiz, kelinglar, koʻzlari munchoq. Uchqur, botir zargʻaldoq, kuychi qarqunoq. Tiniq koʻkda laylaklar yozishar qanot, Qaldirgʻoch, maynajonlar – jajji samolyot. Bogʻda konsert boshlanar: dirijyor laylak

Ushbu sheʼrni oʻqib bergandan soʻng oʻquvchilarga turli rangli qogʻozchalarda qushlarning surati tarqatiladi. Oʻquvchilar matndan eslab qolgan soʻzlarini bu suratlar ostiga yozib qoʻyishlari kerak. Albatta, oʻquvchilar bu sheʼrni shundayligicha eslab qololmaydilar, lekin ularga oid tushunchalarni izohlay oladilar.

«Notoʻgʻri jumla» metodi

Bu oʻyin mavzuga tegishli suratlar asosida oʻtkaziladi. Oʻqituvchi suratni tasvirlab berish davomida suratga tegishli boʻlmagan jummalarni ham ishlatadi. Oʻquvchilar ziyraklik bilan shu jumlani topishlari lozim. Oʻquvchilardan bu oʻyin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatish bilan bir qatorda oʻqituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir notoʻgʻri jumlani topish ularning oʻziga boʻlgan ishonchi va darsga qiziqishini orttiradi. Bu oʻyindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashgʻulotlarda ham foydalanish mumkin. Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarning bilimlarini yanada boyitish va oʻquv jarayonini qiziqarli, samarali qilishda taʼlimiy oʻyinlarning oʻrni va ahamiyatini keng yoritadi. Oʻquvchilarga darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etish, ularning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirish va mustahkamlashda taʼlimiy oʻyinlar muhim vosita hisoblanadi. Ular oʻquvchilarga tilni toʻgʻri ishlatish, soʻz boyligini oshirish, imlo va grammatika qoidalarini oʻrganish, shuningdek, oʻz fikrlarini toʻgʻri ifodalashga yordam beradi. Oʻyinlar orqali oʻquvchilar soʻzlarni tezda topish, toʻgʻri talaffuz qilish, ularni izohlash va qiziqarli mashqlarni bajarish orqali bilimlarini amaliy tarzda mustahkamlashadi. Taʼlimiy oʻyinlar yordamida oʻquvchilar oʻquv jarayoniga faol jalb qilinadi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquvchilarning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni yanada koʻproq ishlashga, oʻz bilimlarini sinab koʻrishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlim konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
2. “Raqamli taʼlim” metodik qoʻllanmasi. – Toshkent: Innovatsiya markazi, 2022.
3. Xodjayeva M., Zokirova D. “Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar”. – Toshkent, 2021.
4. Gʻofurova N. “Boshlangʻich taʼlim metodikasi asoslari”. – Andijon, 2020.

5. Jumaniyozova D. “Interfaol o‘qitish metodlari va dars ishlanmalari”. – Samarqand, 2022.
6. Usmonova R. “Multimedia vositalar bilan dars o‘tish metodikasi”. – Toshkent, 2021.
7. “Boshlang‘ich sinfda innovatsion yondashuvlar” (maqolalar to‘plami). – Buxoro, 2022.
5. Mamarasulova N. “Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiya berishda o‘yin texnologiyalarining ahamiyati”. – Boshlang‘ich ta‘lim. 2020, N3.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2021.
7. www.ziyounet.uz – Ta‘lim portal: —Do‘stlikni qadrlash— mavzu-siga oid dars ishlanmalar va interaktiv mashg‘ulotlar.
8. Jo‘raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta‘limga asoslangan o‘quv –metodik qo‘llanma. –T.: Fan, 2005. –66 b.
9. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari. // Xalq ta‘limi. 1997. № 4. 4-12 b.
10. To‘raqulov O.X. O‘qitishda innovasion usullardan foydalanish// Kasb hunar ta‘limi, 2005, 6-son. –22-23 b.